



1. Siz nimaga qiziqasiz?
2. Maqsadga erishish uchun nima qilish kerak deb hisoblaysiz?



“Maqsadiga erishgan bolalar”
audiomatnini diqqat bilan tinglang.

2






Chet el kompozitorlari ichida yoshligidan butun dunyoga mashhur bo'lgan kompozitor avstriyalik Volfgang Amadey Motsartdir. U 1756-yil 27-yanvarda Avstriyaning kichik bir shaharchasi bo'lmish Zalsburgda saroy kompozitori organchisi Leopold Motsart oilasida dunyoga kelgan.

Motsartning musiqaga bo'lgan qobiliyati 3 yoshidan boshlab yaqqol sezila boshlagan. U klavesinda soatlab shug'ullanar, opasi 8 yoshli Annaning chalgan kuylarini bir eshitishda xatosiz aynan qaytarib chalib bera olardi.

Otasi Leopold o'g'lining musiqiy qobiliyatiga tan beradi va Volfgang bilan ham astoydil shug'ullana boshlaydi. Volfgang Motsart 6 yoshida klavesinda yaxshi chala oladigan darajaga erishadi va birinchi asarini, kichik hajmdagi pyesalarini yoza boshlaydi.

Yetti yoshga kirganda Motsart opasi, 12 yoshli Anna bilan birgalikda Fransiya qirolining qarorgohi – Versal saroyida konsert berishadi.





1. O'rgangan matnlaringiz kimlar haqida ekan?
2. Nodirbek Abdusattorov qanday yutuqlarga erishgan?
3. Uning shaxmatga qiziqishiga nima sabab bo'lgan?
4. Nodirbekning birinchi shaxmat murabbiysi kim edi?
5. Katta yutuqlarga erishish uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?
6. Wolfgang Amadey Motsart kim bo'lgan?
7. Uning qobiliyati haqida qanday ma'lumotlarni eslab qoldingiz?
8. Motsart qanday yutuqlarga erishgan?



Quyidagi ma'lumotlar qaysi qahramonga tegishli ekanini ayting.

1. 2017-yilda dunyoning eng yosh grossmeysteri deya e'tirof etilgan.
2. 2021-yilda tezkor shaxmat bo'yicha jahon chempioni bo'lgan.
3. Uning musiqaga bo'lgan qobiliyati 3 yoshidan boshlab yaqqol sezila boshlagan.
4. Birinchi ustoz – Ravshan Shukurov undagi qobiliyatni rivojlantirdi, maksimal darajada qo'llab-quvvatladi.
5. Otasi o'g'lining musiqiy qobiliyatiga tan beradi.
6. Har kuni 12 soatlab mashq qildi va yuqori marralarni egalladi.

7. 6 yoshida klavesinda yaxshi chala oladigan darajaga erishadi va birinchi asarini, kichik hajmdagi pyesalarini yoza boshlaydi.
8. U klavesinda soatlab shug'ullanar, opasi 8 yoshli Annaning chalgan kuylarini bir eshitishda xatosiz, aynan qaytarib chalib bera olardi.



Qadimda hindlar to'rt kishi ishtirokida o'ynaladigan "chaturanga" o'yinini o'ynaganlar. Har bir ishtirokchining figuralardan tashkil topgan o'z armiyasi bo'lgan. Figuralar sakkizga sakkiz o'lchamli kvadrat doskaning to'rt tarafiga qo'yilgan. O'yinchilar bir-birlariga qarshi o'ynashgan. Figuralar ma'lum qoida bo'yicha harakatlangan. Kimki raqib figuralarni yutsa, u o'yinda g'olib bo'lgan.

Keyinchalik bu o'yin Arabistonning sharqiy qismida ham ommalashgan. O'yin qoidalariga bir qancha o'zgartirishlar kiritilgan. Bu yerda ushbu o'yin "shatranj" nomini olgan. Vaqt o'tib, bu o'yinni forslar ham o'ynay boshlaganlar. Aynan forslar o'yinga siz va biz bilgan "shaxmat" nomini berishgan. Shaxmat so'zining ma'nosi – "shoh mot", ya'ni "shoh mag'lub bo'ldi", degan ma'noni anglatadi.

Klavesin – klavishli torli-tirnama musiqa cholgʻusi. XVI asrdan beri maʼlum. Hozirgi fortepiano (royal)ning oʻtmishdoshi. Unda jahonning mashhur kompozitorlari yuksak badiiy asarlar yaratishgan. Angliya, Fransiya, Italiya klavesin maktablari yuzaga kelgan. XVIII asr oxiridan klavesin oʻrnini fortepiano egalladi. Lekin XX asr boshidan klavesin hamda aynan uning uchun moʻljallangan musiqaga yana qiziqish tugʻilib, u baʼzi cholgʻu ansambllari hamda orkestrlar tarkibiga kiritildi.



Rasmlarga qarang va ortiqcha musiqa cholgʻu asbobini toping. Tanlovingizni izohlang.



“Mening maqsadim” mavzusida matn yarating.